

ADABIYOT DARSLARIDA O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMASINI
O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISH HAYOTIY ZARURAT SIFATIDA

Shamsiyeva Dिल्фуза Nizomidinovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'qish savodxonligi ko'nikmasini shakllantirish hayotiy zarurat ekanligi va ushbu ko'nikmani shakllantirish uchun pedagoglarimiz ko'proq nimalarga e'tibor berishlari kerakligi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qish savodxonligi, adabiyot ta'limi, PISA xalqaro baholash dasturi, savol va topshiriqlar.*

Tez suratlarda rivojlanib borayotgan hozirgi paytda o'quvchilarni ma'nan va jismonan yetuk, qalbi pok, imonli va e'tiqodli qilib tarbiyalash, atrofdagilarga rahm-shafqat hissini uyg'otish, murakkab inson ruhiyatini turli shart-sharoitlarda tushuna olish qobiliyatini shakllantirish to'la-to'kis ta'lim muassasalaridagi adabiyot o'qituvchilarining asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday mushkul vazifa yuklatilgan o'qituvchilarning o'zi, birinchi navbatda, ruhan barkamol, mustaqil fikrlovchi, o'z kasbiga kerakli bo'lgan hamma kompetensiya-larni o'zida jamlagan bo'lishi kerak. O'qituvchi badiiy so'z orqali o'quvchining ko'ngliga yo'l topish kerak. Avvalo, o'qituvchi adabiyotning mo'jizakor kuchini o'quvchilarga anglatish uchun ularda o'qish savodxonligi ko'nikmasini shakllantirishi lozim.

Keling, dastavval o'qish savodxonligi ko'nikmasi qanday tushuncha ekanligi va bu ko'nikmaga ega bo'lgan o'quvchi qanday yutuqlarga erishishi haqida to'xtalamiz. O'qish savodxonligi bu - kundalik hayotimizda uchraydigan matnlar: rasmi matnlar, diagrammali matnlar, grafikli matnlar, xullas, ma'lumot va axborotlarni o'zida jamlagan har qanday matnlarni tushuna olish, uning ma'no-mazmunini ilg'ay olish, olgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda foydalana olish ko'nikmasidir.

2018-yil 8-dekabrda mamlakatimizda jahon xalqaro baholash dasturlariga qatnashish kerakligi ko'rib chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Ushbu xalqaro baholash dasturlaridan biri PISA hisoblanadi. PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturi bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi hamda ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini belgilaydi. Aynan mana shu baholash dasturida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmasi sinovdan o'tkaziladi.

Ushbu tadqiqotda qatnashish bizga nima beradi, degan savol, albatta, har bir kishida paydo bo'lishi mumkin. Bu tadqiqotda qatnashish orqali mamlakatimizda o'quvchilarning bilim va tajribalarini sinovdan o'tkaza olamiz va maktab ta'limimizda qaysi jihatlar sust va orqada qolayotganini aniqlaymiz, ta'lim sohasidagi kamchilik va nuqsonlarni to'g'irlab, o'quvchi va pedagoglarga yetarlicha shart-sharoitlarni yaratamiz.

Maktab sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashishi kerak. O'quvchilarning shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topishida adabiyot

o'qituvchisining o'rni katta, deb o'ylaymiz. Shu sababli adabiyot o'qituvchisi ta'lim oluvchiga o'quv dasturida berilgan mavzularning ma'no-mazmunini chaqishda yaqindan yordam berishi lozim. Bunda o'qituvchi darslarida tur xil topshiriqlar va mashqlardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. To'g'ri tanlangan dars topshiriqlari o'quvchilarga dars davomida egallashi kerak bo'lgan yarim bilimni olishga yordam beradi. Shu sababli o'qituvchi o'tiladigan mavzuni dastlab o'zi yaxshi o'zlashtirib so'ng o'quvchilarga kerakli topshiriqlarni va savollarni tayyorlashi lozim. Sababi adabiyot darslarida mavzularni yaxshi o'zlashtirishda va matnlarning asosiy g'oyasini tushunib yetishda to'g'ri tanlangan savol va topshiriqlarning o'rni kattadir.

Biz hozir o'quvchilarda adabiyot darslarida o'qish savodxonligi ko'nikmasini shakllantirish-da foydalanish mumkin bo'lgan bir qancha topshiriqlarni havola etamiz. Adabiyot darslarida o'tiladigan Shodiqul Hamroning "Hovlidagi daraxt" hikoyasi mavzusini o'tishda darsni 2 bosqichga bo'lib olishni tavsiya etamiz:

1-bosqichda "Mavzuni boshlashdan oldingi topshiriqlar" deya nomlash mumkin. Bu bosqichda pedagog o'quvchilarni yangi mavzuni o'qish uchun tayyorlaydi. O'quvchilarga oldindan tuzib kelingan savollar varaqasi tarqatiladi. Savollar quydagicha tuzilgan bo'lishi mumkin:

1. Hikoya qanday janr hisoblanadi? Bu savolda o'quvchilar adabiyot darslarida o'zlashtirishgan nazariy bilimlarni tekshirib oladi.

2. "Daraxt" so'zini eshitganingizda tasavvuringizda qanday tushunchalar paydo bo'ladi?

3. Siz o'zingizga qadrli bo'lgan daraxt rasmini daftaringizga tushiring va u nima uchun sizga qadrli ekanligini 5 so'z orqali bayon eting. Bu savol orqali o'quvchilarga o'qilishi kutilayotgan hikoyaning asosiy mazmunini tushunib yetishga oldindan yordam beradi.

Hikoya matni o'quvchilarga tanishtirilgandan so'ng "Mavzudan keyingi topshiriqlar" qismiga o'tiladi. Bu qismda o'quvchilarga quyidagicha savol va topshiriqlar berilishi mumkin:

1. Hikoya kim tomonidan bayon qilinganligini aniqlang. Uning nutqi orqali unga xos xarakter xususiyatlarni yozing. Bu savol orqali o'quvchilar kishilar nutqiga e'tibor berishni o'rganishadi va ularning xarakterini aniqlash ko'nikmasi shakllanadi.

2. Asar matnini bayon qiluvchi shaxsga tegishli xususiyatlarni hikoyada berilgan qaysi voqea-hodisalar orqali aniqlay oldingiz? Ularni ustun shaklda yozib chiqing. Ushbu savol orqali o'quvchilar kishilar o'rtasida bo'layotgan vaziyatlarga to'g'ri baho berish ko'nikmasini rivojlantirishiga yordam beradi.

3. Bolaning otasi va muhojirning daraxtga munosabatini qanday edi? Ustun shaklda buni ifodalab bering.

4. Bolaning otasi va muhojirning xarakter-xususiyatlarini bir-biri bilan solishtiring. 3-4-savollar orqali o'quvchilarda shaxs yoki narsalarni bir-biriga solishtirgan holda ularning muqobilini aniqlash ko'nikmasini sinovdan o'tkazishga va rivojlantirishga yordam beradi.

5. Nima deb o'ylaysiz, hikoyadagi daraxt nimaning ramzi? Siz "Mavzu boshlanishidan oldingi topshiriqlar"dan birida chizgan rasmingizning nima uchun sizga qadrli ekanligi haqidagi fikringiz ushbu savolda sizga yordam berishi mumkin.

Yuqoridagi savollar orqali darslar olib borilsa, mavzu o'quvchiga tushunarliroq bo'lishi mumkin deb o'ylayman. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tmoqchiman, har bir fan o'qitilishining asosiy maqsad va vazifalari bo'ladi, albatta. Biz adabiyot darslarida quruq

ma'lumotlarni o'quvchilarga yod oldirish bilan maqsadimizga yeta olmaymiz. Adabiyot - hayotni o'rganish vositasidir.

U orqali o'quvchilar o'zlarida uchrayotgan yoki bo'lmasa kelajakda ro'y berishi kutilayotgan hodisalardan yiqilmasdan, sinmasdan to'g'ri yo'lni tanlab chiqib keta olishi mumkin, deb o'ylaymiz. Shu sababli pedagog dars jarayonidan shoir va yozuvchilarning hayoti hamda ijodini to'xtamasdan aytib bergan o'quvchiga butun sinf oldida eng yuqori bahoni qo'yishi, o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan mulohaza yuritishdan, fikrlashdan to'xtatib, ularni faqat kitobda berilgan ma'lumotlarni yod olishga undashga olib kelishi mumkin. Yuqoridagi savollar esa o'quvchilarni shaxs sifatida tarbiyalanishga yordam beradi. Ularni kelajakda har bir vaziyatga to'g'ri baho beradigan, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan inson sifatida ulg'ayishiga zamin yaratadi. PISA xalqaro baholash dasturi ham o'quvchilarning olgan bilimlarini hayoti davomida uchraydigan turli vaziyatlarda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini sinovdan o'tkazadi. O'ylaymanki, yuqoridagi berilgan savol va topshiriqlar pedagoglarimizga asqatadi. Ehtimol, pedagoglarimiz o'zlari tayyorlagan mukammalroq savol-topshiriqlar orqali darslarini unumli o'tishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2018-y.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. (An'anaviylikdan zamonaviylikka). - Toshkent, 2020-y.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. 7-sinf darslik. - Toshkent, 2022-y.
4. Yuldosheva S. Mardiyeva X. Adabiy matnlarni o'qitishda o'qish savodxonligini rivojlantirish. - Samarqand, 2021-y., - B. 68.